Jismoniy shaxslarga anderrayting tizimi orqali chakana kreditlarni ajratish tartibi to‘g‘risidagi nizomga kiritilayotgan qo‘shimchaga

1-ilova

“Jismoniy shaxslarga anderrayting tizimi orqali chakana kreditlarni ajratish tartibi to‘g‘risida”gi nizomga
4u-ilova

“Jismoniy shaxslarga anderrayting tizimi orqali chakana kreditlarni ajratish tartibi to‘g‘risida”gi nizomga **kiritilayotgan qo‘shimcha** (Nizomning 4u-ilovasi)

“Mahalla-Biznes” mikroqarz mahsuloti
MODULI

T/r	Mikroqarz ajratishning asosiy shartlari	
1.	**Mikroqarz oluvchilar**	Hukumat tomonidan “Mikrokreditbank” ATB ga biriktirilgan mahalla fuqarolari yig‘in (MFY) larida istiqomat qiluvchi yoshi 18 dan 60 yoshgacha bank mijozi bo‘lgan, o‘z-o‘zini band qilgan jismoniy shaxslar.
1.1.	**Kredit oluvchining daromad manbalari**	*O‘z-o‘zini band qilgan, rasmiy daromadga ega bo‘lmagan jismoniy shaxslarning kredit tarixi o‘rganiladi.*
2.	**Qarz oluvchi tomonidan taqdim etiladigan hujjatlar**	a) ID-karta yoki pasport va pasport o‘rnini bosuvchi hujjat. Mijoz harbiy xizmatchilar uchun harbiy guvohnomasini taqdim etgan taqdirda, ID-karta yoki pasport nusxasi ham talab etiladi; b) O‘z-o‘zini band qilganligi bo‘yicha guvohnoma; v) mikroqarz ta’minoti hujjatlari.
3.	**Mikroqarz valyutasi va ajratish shakli**	Jismoniy shaxslarga naqd pulda, bank kartalariga pul o‘tkazish yo‘li bilan muddatlilik, to‘lovlilik, ta’minlanganlik va qaytarishlilik shartlari asosida bank bo‘linmalari orqali milliy valyutada (so‘m) qarz ajratiladi
4.	**Kredit ajratish shakli**	Naqd pulda, bank plastik va virtual kartalariga (onlayn) pul o‘tkazish yo‘li bilan ajratiladi
5.	**Kredit bo‘yicha to‘lov qilish shakli**	Annuitet/differensial
6.	**Mikroqarz muddati va yillik foiz stavkasi**	48 oygacha Yillik foiz stavkalari Bank mahsulotlarni boshqarish komissiyasi qaroriga asosan belgilanadi.

7.	**Asosiy qarz to‘lovi bo‘yicha imtiyozli muddat**	Annuitet to‘lov qilish shakli uchun – mavjud emas Differensial to‘lov qilish shakli uchun – 3 oygacha
8.	**Mikroqarzning miqdori**	*O‘z-o‘zini band qilgan jismoniy shaxslarga:* 15 mln. so‘mgacha.
9.	**Avval ajratilgan kredit/mikroqarz bo‘yicha qarzdorlik**	Muddati o‘tgan qarzdorlik bo‘lmasligi lozim. O‘zini o‘zi band qilgan rasmiy daromadga ega bo‘lmagan qarz oluvchining KATM bazasidan oldingi olingan kreditlari bo‘yicha ma’lumotlari o‘rganiladi.
10.	**Mikroqarz ta’minoti**	*O‘z-o‘zini band qilgan jismoniy shaxslarga:* *- qaytmaslik xatarini sug‘urtalash polisi (qaytmaslik xatarini sug‘urtalash xizmati uchun sug‘urta mukofoti kredit summasi hisobidan to‘lanishi mumkin);* *- yoki uchinchi shaxs kafilligi.*
11.	**Kredit ta’minoti**	Kredit summasining 125 foizdan kam bo‘lmagan miqdorda ta’minot.
12.	**Ta’minot ob’ekti sug‘urta polisi muddati**	Sug‘urta shartnomasi va polisi kreditning to‘liq muddatiga tuziladi.
13.	**Filial tomonidan qo‘shimcha tekshiriladigan shartlar (kredit ajratilishidan oldin)**	- muddati o‘tgan qarzdorlik bo‘yicha SMS xabarnoma yoqilganligi; - kreditlar avto to‘lov tizimiga ulanganligi; - kredit va unga hisoblangan foiz to‘lovlar bir kunga qo‘yilganligi.
14.	**Alohida sharti**	1. Qarz oluvchining bank va boshqa banklarda mavjud barcha mikroqarz mablag‘lari qoldig‘i hisobga olingan holda jami qarzdorlik qoldig‘i 100 mln. so‘mdan ortishi mumkin emas. 2. “Mikrokreditbank” tizimida ushbu kredit turidan foydalangan o‘z o‘zini band qilgan jismoniy shaxslar (qarzdor)ga mazkur kredit bo‘yicha joriy qarzdorlikni yopgandan so‘ng qayta olishiga ruxsat beriladi
15.	**Moliyalashtirish manbalari**	Bankning o‘z mablag‘lari.